

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOBIROV ELYOR OZATOVICH

**MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYA TA’LIMIDA EKOLOGIK VA
TABIATNI MUHOFAZA QILISH KO’NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sobirov Elyor Ozatovich

Ma'ktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik va tabiatni muhofaza qilish
ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi 3

Собиров Элёр Озатович

Методика формирования экологических и природоохранных умений в
школьном физико-географическом образовании 23

Sobirov Elyor Ozatovich

Methodology of formation of ecological and nature protection skills in school
physical geography education 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOBIROV ELYOR OZATOVICH

**MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYA TA’LIMIDA EKOLOGIK VA
TABIATNI MUHOFAZA QILISH KO’NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.2.PhD/Ped1393 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Avazov Sherimmat pedagogika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich geografiya fanlari doktori (DSc), professor Mustafayev Shomurod Normuminovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 21-avgust soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. SamDU bosh binosi, 105-auditoriya. Tel.: (66) 239-19-36, faks (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (66) 233-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 7-avgustdagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

M.R.Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish sharoitida ekologik jarayonlar bilan bog‘liq muammolar dolzarblashib borayotgan davrda uzluksiz ta‘lim tizimida o‘qitiladigan fanlar mazmunini ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga doir bilimlar bilan boyitib borish zarurati yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunda AQSH, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlarning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar mazmuni o‘quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid sohaviy bilimlarini boyitishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha: yangi ta‘lim konsepsiyasida “Ta‘lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat” ekanligi e‘tirof etilgan¹. Bunday yondashuv o‘quvchilarning tabiatni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish hamda o‘quvchilarda ekologik va tabiatni muhofaza qilish oid transdissiplinar bilimlarni mustahkamlashni taqazo etadi.

Dunyoda maktab geografiya ta‘limida ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid bilimlar tizimini fanlararo yondashuvga ustuvorlik berish orqali loyihalash, o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini ta‘minlash; yashil iqtisodiyot sharoitida ta‘lim oluvchilarda iste‘molchilik madaniyatini rivojlantirish metodikasini ta‘minlashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, atrof-muhitni ekologizatsiyalash orqali ta‘lim oluvchilarda moslashuvchan ko‘nikmalarni shakllantirish, Valdorg pedagogikasi tarbiya tizimi orqali o‘quvchilarda global ekologik fikrlashni shakllantirish, tabiiy fanlarni o‘qitishning integrativ texnologiyalarini takomillashtirishga alohida zaruriyat mavjud. Geografiya ta‘limi mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, ta‘lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalar tizimini pragmatik pedagogika imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali rivojlantirish alohida dolzarblilik kasb etadi.

Mamlakatimizda global rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ekologik muammolarning oldini olishda fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ekologik madaniyatni uzluksiz rivojlantirib borish, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilariga ekologik ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Har bir maktabda ekologik burchak, ekologik bog‘lar tashkil etish, ularga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilash, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarida ekologik targ‘ibotni amalga oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi o‘quvchilariga mo‘ljallangan ekologik mavzularda va “yashil iste‘mol” madaniyatining kundalik qoidalarini bilish, tabiiy resurslarni isrof qilmaslik kabi xalqimizning milliy udum va qadriyatlarini targ‘ib qiluvchi ijtimoiy axborot, multiplikatsion va animatsion filmlar yaratish”² ekologik ta‘lim-tarbiyani

¹ Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-184-son. 2025-yil 15-may // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 07/25/184/0447-son; 02.06.2025-y., 06/25/90/0486-son.

yuksaltirishda muhim ustuvorlik kasb etadi. Bu esa, maktab tabiiy geografiya kurslarini ekologiyalashtirishning nazariy-metodik asoslari va imkoniyatlarini aniqlash, maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunidagi ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini tasniflash, maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish modelini ishlab chiqishni muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XX asrning 50-yillaridan keyin jamiyatning tabiatga salbiy ta'siri kuchayishi sababli pedagogika fani va amaliyotida 1960-yillar o'rtalarida "atrof-muhit sohasidagi ma'rifat (ta'lim)" va oxirida "tabiatni muhofaza qilish ma'rifati (ta'limi, tarbiyasi)" tushunchalari paydo bo'lgan. 1970-yillar boshida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ekologik jihatlarini yanada uyg'unlashtirish maqsadida "ekologik ma'rifat" (ta'lim, tarbiya) va 1980-yillar o'rtalarida "ekologik madaniyat" tushunchalari shakllangan. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida "barqaror taraqqiyot uchun ekologik ma'rifat" va "barqaror taraqqiyot uchun ekologik madaniyat" tushunchalari paydo bo'lgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, "ekologik ma'rifat" (ta'lim, tarbiya) tushunchasi "tabiatni muhofaza qilish ma'rifati (ta'limi, tarbiyasi)" tushunchasining negizida vujudga kelgan.

O'zbekistonda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, barqaror rivojlanish va ekologik madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq geoekologik va ma'rifiy muammolarning xilma-xil jihatlari S.Abbasov, S.Abdullayev, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, Yu.Axmadaliyev, P.Baratov, P.G'ulomov, N.Komilova, A.Nigmatov, A.Rafiqov, P.Reimov, I.Turdimambetov, Sh.Sharipov, A.Xojimatov (geografik tadqiqotlarda), B.Abdurahmonov, Sh.Avazov, F.Saydamatov, A.Xaitov (geografiya ta'limi jarayonida), M.Nishonboyeva, T.Saparova (biologiya ta'limi jarayonida),

E.Turdiqulov, A.Xo‘jamberdiyev (fizika va matematika ta’limida), I.Ismatov, X.Norbo‘tayev (kimyo ta’limi jarayonida), V.Sattorov, B.Mahkamov (mehnat ta’limida) va boshqa olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari: T.Babakova, N.Vinokurova, A.Zaxlebniy, I.Zverev, I.Gaysin, S.Glazachev, E.Girusov, T.Ismailov, G.Karopa, I.Laptev, N.Mamedov, G.Marsinkevich, A.Mironov, L.Pancheshnikova, N.Reymers, M. Saribekov, I.Suravegina va boshqalar ekologik ma’rifat va ekologik madaniyatni shakllantirishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Maktab geografiya kurslarida tabiatni muhofaza qilish ma’rifati masalalari bilan A.Zaxlebniy, B.Ioganzhen, V.Maksakovskiy, T.Kucher va boshqalar shug‘ullangan. Masalan, A.Zaxlebniy tabiatni muhofaza qilishning umumgeografik asoslarini tavsiflagan. I.Barinova, S.Vasilev, N.Vinokurova, I.Dushina, G.Kamerilova, N.Knutova, V.Maksakovskiy, I.Matrusov, A.Mironov, V.Nikolina, N.Rodzevich, M.Rijakov va boshqalarning ishlarida geografiya ta’limini ekologiyalashtirishning nazariy-metodik jihatlari ochib berilgan. Xususan, I.Urazmetov, S.Maxov, A.Shapovalova “ekologik bilim” tushunchasini “ekologik ko‘nikma” tushunchasi bilan solishtirganda bo‘rttirib yubormaslik kerak, deb hisoblaydi. Ular bo‘lg‘usi o‘qituvchilar va o‘quvchilarda ekologik va ijtimoiy-ekologik ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masala ekanligiga alohida e’tibor qaratadi.

Xorijiy tadqiqotchilar M.Medouz, J.Granados-Sanches, B.Fu, K.Xung, J.Palmer va boshqalar barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishi sohasidagi geografik ta’limning ekologik mazmunini (bilim va ko‘nikmalar) aniqladilar; J.Zadrozniy, M.Maniates, M.Grin va boshqalar geografik standartlar va ekologik savodxonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgandilar; B.Verlen, P.Nagel, M.Finger, J.Remsi, L.Chjunmey, X.Vilke, A.Budke va boshqalar geografiya ta’limi jarayonida ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish (kuzatish, tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, modellashtirish, prognozlash va shu kabilar) bo‘yicha tadqiqotlar olib bordilar.

Disseratsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan (2017-2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi maktab tabiiy geografiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalari tizimini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktab tabiiy geografiya kurslarini ekologiyalashtirishning nazariy-metodik asoslari va imkoniyatlarini aniqlash;

maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunidagi ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini tasniflash;

maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va uni ekologik o'lkashunoslik imkoniyatlari doirasida amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlash;

maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajribaviy tekshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida 881 nafar 5-7-sinf o'quvchisi va 12 nafar geografiya o'qituvchisi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini maktab tabiiy geografiya ta'limida o'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda falsafiy, pedagogik-psixologik, geografik, ekologik, metodik adabiyotlar va pedagogik hujjatlarni o'rganish; maktab tabiiy geografiya kurslari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish; tizimli-tuzilmaviy tahlil; mantiqiy-didaktik tahlil; deduksiya, induksiya, kuzatish, baholash, intervyu, o'qituvchi va o'quvchilar bilan so'rov o'tkazish, suhbat, test sinovlari, tizimlashtirish, modellashtirish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, loyihalash, prognozlash, o'quvchilarning yozma, kartografik va ijodiy ishlarini o'rganish, materialni matematik va statistik qayta ishlash kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktab tabiiy geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni geoekologik tezaurusni ishlab chiqish va "ekologik skills"ni tasniflashning didaktik infratuzilmasi rivojlantiruvchi matritsalar identifikatsiyasini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirilgan;

maktab tabiiy geografiya ta'limida o'quv va darsdan tashqari ekologik o'lkashunoslik orqali ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish modeli subyekt-subyekt munosabatlaridagi ijodiy faollik hamda tabiiy-ilmiy yo'nalganlik motivlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning transdissiplinar qayta aloqasini ta'minlash, (tabiiy jarayonni tushuntirishda tegishli fanlarga qaytib olish) asosida takomillashtirilgan;

maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirishning algoritmik bosqichlari o'quv-bilish jarayonida ekologik-qadriyatli munosabatning namoyon bo'lish darajalariga muvofiq o'quv-ijodiy faoliyat ko'lamini maqsadli kengaytirib borishga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

maktab tabiiy geografiya kurslarida ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosida o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va qayta aloqaga kirishish mobilligini oshirishni, o'quv hamda darsdan tashqari ekologik o'lkashunoslik faoliyatiga doir izlanishli ta'limiy muhitni mikrotizim

imkoniyatlarini hisobga oladigan yangi modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

maktab tabiiy geografiya ta'limi amaliyotiga ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalari tizimi va ularni 5-7-sinf o'quvchilarida shakllantirish metodikasi joriy etilgan;

maktab tabiiy geografiya ta'limi uchun ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid bilim va ko'nikmalar tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan ekologik darslar (mashg'ulotlar) turkumi ishlab chiqilgan;

5-7-sinf o'quvchilarida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradigan amaliy ishlar va mustaqil topshiriqlar tizimini o'z ichiga olgan "Ekologik o'lkashunoslik" to'garagi uchun o'quv qo'llanma chop ettirilgan;

geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimi uchun ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid bilimlar va ko'nikmalarni qo'llashga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni o'z ichiga olgan "Zamonaviy geografiya fani va geokologiyaning nazariy va amaliy muammolari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua nashr ettirilgan;

o'quvchilarda ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tizim oliy ta'limda geokologik ta'lim va maktab tabiiy geografiya kurslarining didaktik-metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mazkur ishning maqsadi va vazifalariga mos keladigan yondashuv va metodlarning xilma-xilligi, rasmiy manbalardan olingan nazariy ma'lumotlardan foydalanilgani, maktab amaliyotidan olingan empirik ma'lumotlarning har tomonlama va puxta tahlil qilingani, matematik va statistik metodlardan foydalangan holda tajriba-sinov ishlari samaradorligi aniqlangani, xulosalarning asoslangani, natijalarning maktab ta'limi amaliyotiga joriy etilgani, shuningdek ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunini ekologiyalashtirishning metodik tizimi asoslangani, ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarining integrativ tasnifi (tizimi) yaratilgani, maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasining modeli ishlab chiqilgani, ularni shakllantirish sharoitlari va bosqichlari aniqlangani, ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari ekologik o'lkashunoslik asosida boyitilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ekologik ta'lim modernizatsiyasini hisobga olgan holda maktab tabiiy geografiya ta'limi amaliyotida 5-7-sinf o'quvchilarida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgani va tajriba-sinovdan o'tkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktab tabiiy geografiya ta'limida o'quvchilarning ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

maktab tabiiy geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini geoekologik tezaurusni ishlab chiqish va "ekologik skills"ni tasniflashning ta'limiy maqsadga mos keluvchi didaktik infratuzilmasini konseptual yo'nalishlar va rivojlantiruvchi matritsaning identifikatsiyasini bevosita hisobga olish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar "Ekologik o'lkashunoslik" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil 14-dekabrda 11/1.3-son Qarori, 2024-254-U-373-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak geografiya o'qituvchilarning geoekologik o'quv faoliyati natijalarini loyihalashga doir bilimlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

maktab tabiiy geografiya ta'limida o'quv va darsdan tashqari ekologik o'lkashunoslik orqali ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish modelini subyekt-subyekt munosabatlaridagi ijodiy faollik va tabiiy-ilmiiy yo'nalganlik motivlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning transditsiplinar qayta aloqasi barqarorligi intensivligini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar "Ekologik o'lkashunoslik" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil 14-dekabrda 11/1.3-son Qarori, 2024-254-U-373-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot asoslariga doir kognitiv-amaliy kompetentligini rivojlantirishga erishilgan;

maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirishning algoritmik bosqichlarini o'quv-bilish jarayonida ekologik-qadriyatli munosabatning namoyon bo'lish darajalariga muvofiq o'quv-ijodiy faoliyat ko'lamini maqsadli kengaytirib borishga qaratilgan geoekologik-interaktiv darslarni didaktik loyihalashtirish mantiqiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar "Ekologik o'lkashunoslik" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil 14-dekabrda 11/1.3-son Qarori, 2024-254-U-373-raqamli guvohnoma). Natijada, malaka oshirish kursining "Zamonaviy geografiya fani va geoekologiyaning nazariy va amaliy muammolari" modulining o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan;

maktab tabiiy geografiya kurslarida ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va qayta aloqaga kirishish mobilligini oshirish, o'quv va darsdan tashqari ekologik o'lkashunoslik faoliyatiga doir izlanishli ta'limiy muhitni mikrotizim imkoniyatlarini hisobga olish orqali modellashtirishning produktivligini qat'iy belgilash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar "Ekologik o'lkashunoslik" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida

moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil 14-dekabrda 11/1.3-son Qarori, 2024-254-U-373-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining loyihaviy faoliyatni tashkil etish va o'tkazishga doir kompetentligini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (xorijiy jurnalda 3 ta, respublika jurnallarida 5 ta) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 146 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan, shuningdek natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingani va ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Maktab tabiiy geografiya ta'limini ekologiyalashtirish asosida o'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi**" deb nomlangan. Bobning "Geografiya fani ekologiyalashuvining tarixiy-nazariy jihatlari" deb nomlangan birinchi bo'limida geografiyaning ekologiyalashuvi va geoekologiyaning shakllanishiga oid tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Geografiya fani uchun "odam va atrof-muhit" yoki "jamiyat va tabiat" o'rtasidagi munosabatlar (tabiatning odam salomatligi va xo'jalik faoliyatiga va, aksincha, jamiyatning tabiatga ta'siri) masalasi an'anaviy hisoblanadi. Shu asosda geografik muhitning jamiyatga ta'siri haqida geodeterminizm (geomuhit – jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch: Said al-Andalusiy, J.Marsh, Sh.Monteske, J. Reklyu, K.Ritter), geonigilizm (geomuhit hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi: A.Toynbi, P.Jeyms), geopossibilizm (geomuhit – imkoniyat yaratadi, undan qanday foydalanish jamiyatga bog'liq: P.Vidal de la Blash, E.Martonn, J.Bryun) kabi g'oyalar paydo bo'lgan.

XX asrning 60-yillarigacha geografiya va ekologiya negizida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga oid bir qancha ta'limot va konsepsiyalar shakllangan: biogeotsenoz (V.Sukachev), landshaft (K.Troll), geografik qobiq (A.Grigorev), biosfera (V.Vernadskiy) va noosfera (E.Lerua) haqidagi ta'limot; ekotizim

(A.Tensli), geotizim (V.Sochava) va xorologiya (A.Gettner) konsepsiyasi. 60-yillardan boshlab, geografiya va ekologiya o'rtasidagi aloqani tushunish istagi paydo bo'lgan ("Geography and ecological approach. The ecosystem as a geographical principle and method» (D.Stoddart); "Geografiya va ekologiya" kitobi (V.Sochava), tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatsiz munosabatlar ekologik inqirozga olib kelishi isbotlangan (J.Forrester, D.Medouz).

Geoekologik tadqiqotlarning bosh vazifasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida tabiat, aholi va ishlab chiqarishning bir-biriga zid manfaatlari o'rtasidagi eng oqilona va optimal uyg'unlikni topishdan iborat. Bu muammolarning yechimi geoekotizimlar tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish va ularni optimallashtirish bilan bog'liqdir. Geoekologiyada geotizimlar va ekotizimlar integratsiyasiga asoslanib, hududiy geoekotizimlar o'rganiladi va ularning muvozanatli rivojlanish qonuniyatlari izohlanadi. Geoekotizim ikki modelning integratsiyasidir: ekotizim modeli – biotsentrik (asosiy komponent – biota); geotizim modeli – politsentrik (komponentlari "teng-baravar"). Bunda geoekotizim komponentlari o'rtasidagi to'g'ri va teskari aloqalar o'rganiladi va geografik obyektlarning ekologik holati baholanadi.


Tahlillar ko'rsatdiki, XX asrning 80-yillarida O'zbekiston ilmiy geoekologik maktabi (S.Abbasov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, A.Rafiqov, G.Tetyuxin va boshqalar) xorijiy maktablardan farqli ravishda, yuzaga kelayotgan tabiiy-antropogen geoekologik muammolarni (masalan, Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini) hal qilishga nazariy jihatdan yetarlicha shay bo'lgan. Biroq sobiq tuzum davrida fanlarning siyosiy-mafkuraviy nazorati bu muammolar yechimiga to'siq bo'lgan (sotsialistik tuzum sharoitida hal etilmagan ekologik muammo bo'lmasligi, bunday muammolar kapitalistik iqtisodiyotga xos bo'lgan tabiatga shavqatsiz munosabat natijasi ekani qat'iy belgilab qo'yilgan). 90-yillarning boshlarida bu nazorat olib tashlangach, geografiyaning ekologiyalashuvi va ilmiy geoekologiya rivoji jadallashgan (Yu.Ahmadaliyev, A.Nig'matov, Sh.Sharipov va boshqalar). Eng muhimi, geografiya ekologiyalashuvi natijasida vujudga kelgan ilmiy geoekologik tushunchalar tizimi maktab geografiyasi ekologiyalashuviga, ya'ni pedagogik moslashgan geoekologik bilim va ko'nikmalar tizimining shakllanishiga olib kelgan.

Bobning "Maktab tabiiy geografiya kurslarini ekologiyalashtirish imkoniyatlari: ekologiya va tabiat muhofazasi bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar tahlili" deb nomlangan ikkinchi bo'limida 5-7-sinflarda tabiiy geografiya kurslarini ekologiyalashtirish yo'llari va vositalari ta'riflangan: 1) o'quv-metodik ishlarning ekologik mazmunini tanlash va mashg'ulotlar jarayonida ekologik axborotni kengaytirish; 2) kurslarning mazmunini muhim ekologik tushunchalar (biosfera, atrof-muhit, geoekosistema, tabiatdan foydalanish, ekologik muammo, antropogen omil, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik imperativ, koevolyusiya va shu kabilar) bilan boyitish; 3) o'quvchilarda ekologik tadqiqotlarning ilmiy metodlari haqidagi bilimlar va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; 4) kurslar mazmuniga mos keladigan hududiy (mahalliy, mintaqaviy va global) ekologik

muammolarni o‘rganish; 5) kurslarni o‘rganish jarayonida fizika, kimyo, biologiya bilan fanlararo (sabab-oqibat) aloqalardan foydalanish va ekologik mazmundagi xaritalar bilan ishlash; 6) o‘quvchilarni faol ekologik-o‘lkashunoslik (bilish, tadqiqiy va tabiatni himoya qilish) faoliyatiga jalb etish va ularning tabiat bilan maqsadli muloqotini tashkil etish (ekskursiya, sayohat).

Ta’limning natijalari nafaqat o‘quvchilar egallagan bilimlarda, balki ularning ko‘nikmalari majmuida ham aks etadi. Ko‘nikma: 1) harakatdagi bilim, muayyan amallar majmuini – harakatni bajarish usullarini o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi (I.Podlasiy); 2) o‘quvchi tomonidan egallangan intellektual va amaliy harakatlarni bajarish usullari (B.Lomov, A.Usova); 3) faoliyat usulini ongli ravishda egallash - malaka shakllanishining ilk bosqichi. Maktab tabiiy geografiya kurslari quyidagi amaliy va aqliy ko‘nikmalarning shakllanishini ta’minlaydi: tabiiy-geografik axborot manbalari (xarita, diagrammalar) bilan ishlash ko‘nikmasi; obyektlarning tabiiy-geografik o‘rnini aniqlash va ularni yozuvsiz xaritada belgilash ko‘nikmasi; tabiiy-geografik jarayonlarni kuzatish, qayd etish va tushuntirish ko‘nikmasi; o‘z o‘lkasi tabiati tarkibiy qismlarini tavsiflash ko‘nikmasi. Tahlil natijasida ma’lum bo‘ldiki, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunida ekologiya va tabiat muhofazasiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Zero bu ko‘nikmalar geoekologik ta’lim va madaniyatning eng zarur (harakatli-faoliyatli) tarkibiy qismi hisoblanadi (B.Abdurahmonov, Sh.Avazov, I.Barinova, I.Dushina, G.Kamerilova, V.Maksakovskiy, S.Matsaidova).

Bobning uchinchi paragrafi “Maktab tabiiy geografiya ta’limi amaliyotida ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi holati” deb nomlangan bo‘lib, unda geografiya bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim standartida tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat sohasidagi kompetensiyalarni egallash zarurligi qayd etilgan. Bu bo‘limda o‘quvchilarda shakllanishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalar ikkita guruhga ajratilgan: 1) atrof-muhitni (geoekotizimlarni) tadqiq qilish va baholash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar – aqliy ekologik ko‘nikmalar; 2) tabiiy sharoit va resurslarni muhofaza qilish, tiklash va yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar – tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy ko‘nikmalar. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: ikkinchisini birinchisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz didaktik tamoyillarga asoslangan holda mazkur ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni quyidagicha aniqladik (1-rasm).



1-rasm. Ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalari o‘rtasidagi uzviy bog‘lanish

Shu bilan birga, ta'kidlovchi tajriba-sinov natijasiga ko'ra maktablar amaliyotida ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarining shakllanish holati aniqlandi:

1) o'qituvchilarning aksariyati (respondentlarning 88 foizi) maktab tabiiy geografiya ta'limida ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid bilimlar va ko'nikmalarning tutgan o'rnini to'liq tushunadilar, biroq ular o'quv dasturlari hamda darsliklarning mazmunida to'liq aks etmaganligi (respondentlarning 53 foizi) sababli, shuningdek, o'quv vaqti yetishmasligi tufayli (respondentlarning 76 foizi) tasodifiy yoki tizimsiz shakllanadi;

2) o'quvchilarning ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalariga qiziqishi yuqori (respondentlarning 76,5 foizi) bo'lishiga qaramay, ularning bu boradagi bilim va ko'nikmalari qoniqarli yoki undan past (respondentlarning 84 foizi) darajada shakllangan;

3) maktab tabiiy geografiya ta'limi amaliyotida ekologik o'lkashunoslik asosida o'quvchilarda ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beruvchi metodik tizim mavjud emas.

Shu sababli maktab tabiiy geografiya kurslarida o'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirishning muhim metodik sharti bu ko'nikmalarni tizimlashtirish va ularni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Maktab tabiiy geografiya kurslarini o'rganishda ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo'limdan iborat. Bobning **“Tabiiy geografiya kurslari mazmunidagi ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalari tasnifi (tizimi)”** deb nomlangan birinchi bo'limi murakkab mavzulardan biri hisoblanadi. Gap shundaki, bu ko'nikmalar tasnifi (ma'lum bir xususiyati bo'yicha tartiblangan tizimi), shuningdek ularning shakllanish tamoyillari, bosqichlari, mezonlari va darajalari faqat o'ziga xos bo'lib, yetarlicha tadqiq etilmagan. O'quvchilarning ekologik va tabiatni muhofaza qilish faoliyati asosini tashkil etuvchi ushbu ko'nikmalar turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Shu sababli biz ekologik ko'nikmalarning (EK) to'rt tipini ajratib ko'rsatdik: bilishga oid EK – odam va tabiatning o'zaro ta'sirini ochib beradi; baholashga oid EK – tabiiy obyekt va hodisalarni ekologik belgilari bo'yicha tekshirishga imkon beradi; prognozlashga oid EK – tabiatga salbiy ta'sirlarni ko'ra bilish va oldini olishni ta'minlaydi; kartografik EK – ekologik xaritalar va xarita-chizmalarni tuzish va tahlil etish imkonini beradi. Bu ko'nikmalar, o'z navbatida, tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini (TMQK) shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biz mazkur yondashuvga va metodist-olimlar fikrlariga tayangan holda ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini quyidagicha tasnifladik (1-jadval).

Maktab o'quvchilarida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi quyidagi didaktik tamoyillarga tayanadi: onglilik; faollik; ilmiylik; ko'rsatmalilik; hammaboplik; tizimlilik; nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi; izchillik; ekologik o'lkashunoslik.

Maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunidagi ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarining tasnifi (tip va turlari)

Tip	Turlari
Bilishga oid EK	<p>1) geoeologik mazmundagi kuzatishlar kundaligini yuritish; 2) oddiy asboblardan bilan atrof-muhitdagi o'zgarishlarni kuzatish; 3) qushlarni kuzatishni amalga oshirish (kundalik va mavsumiy migratsiya paytida); 4) 7-10 turdagi yovvoyi daraxtlar, butalar, o't o'simliklari, umurtqasiz hayvonlar va qushlarni aniqlash va nomlash; 5) daraxtlar bargidagi zararlanishni topish; 6) bioxilma-xillik kamayishining sabablari va omillarini aniqlash; 7) atmosfera yog'inlarining tabiiy ifloslanishini aniqlash; 8) havo ifloslanishi sabablari va manbalarini tahlil qilish; 9) tuproq, havo va suv sifati (ifloslanishi) haqidagi ochiq ma'lumotlar (jadval, grafik, diagramma) manbalaridan foydalanish;</p> <p>10) yog'inlar va suvning fizikaviy-kimyoviy tahlilini o'tkazish; 11) ma'lum bir joy havosining holati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida grafik va jadvallar tuzish; 12) havo ifloslanishining hududiy xususiyatlarini aniqlash; 13) geoeologik obyekt va hodisalarni muhim belgilariga ko'ra tasniflash; 14) atrof-muhit obyektlari (tarkibiy qismlari) o'rtasidagi aloqalarni modellashtirish; 15) tabiat komplekslari, ularning inson faoliyati natijasida o'zgarishini tavsiflash; 16) tabiiy sharoitlarni (omillarni) o'rganishning ahamiyatini tushuntirish; 17) tabiiy resurslar joylashishi va o'zlashtirilishining ahamiyatini izohlash; 18) odamning tabiatda yurish-turish (o'zini tutish) qoidalari haqida so'zlab berish; 19) darsliklar va boshqa adabiyotlar matnidagi geoeologik bilimlarni topish; 20) tabiatni muhofaza qilishda joy plani va xaritalarni o'rganish zarurligini izohlash; 21) turli tabiiy mintaqalardagi mehnat sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish; 22) mahalliy va mintaqaviy geoeologik muammolarni hal qilish zarurligini izohlash (Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari); 23) geoeologik axborot, eslatma varaqalar va xarita-chizmalar ishlab chiqish; 24) geoeologik mavzularda rasm, plakat va videoroliklar tayyorlash.</p>
Baholashga oid EK	<p>1) uyda va maktabda elektr energiyasi sarfining hisobini yuritish; 2) maktabda va uyda qog'oz va boshqa qattiq chiqindilar hisobini amalga oshirish; 3) maishiy elektr jihozlari iste'mol qiladigan energiyani aniqlash; 4) xonalar va hududlar havosidagi changlanganlik darajasini baholash; 5) turli aholi punktlari havosining ifloslanish darajasi va o'zgarish sur'atini baholashni amalga oshirish; 6) geoeologik obyekt va hodisalarni farqi va o'xshashlik belgilari bo'yicha taqqoslash; 7) lishayniklarning hayotiy shakllari (indikator sifatida) muhimligini aniqlash; 8) tabiiy-ekologik shart-sharoitlarga baho berish; 9) tabiiy resurslarga baho berish; 10) odamning tabiatga ta'sirini baholash; 11) odamning tabiatni asrash bo'yicha xulq-avtor qoidalari rioya qilishi zarurligini izohlash; 12) turli xil chizma, xarita-chizma, xarita, grafik va diagrammalar asosida inson xo'jalik faoliyatining aholi salomatligiga ta'sirini izohlash; 13) mahalliy hududning ekologik holatini baholash; 14) o'zi va o'zgalarning xatti-harakatini atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan baholash.</p>
Prognozlashga oid EK	<p>1) antropogen faoliyat natijasida atrof-muhitda mumkin bo'lgan o'zgarishlarni taxmin qilish; 2) odamning tabiatga ta'siri oqibatlarini oldindan aytish; 3) atrof-muhit (havo, suv, tuproq) ifloslanishiga qarshi kurash choralarini ko'rish zarurligini izohlash; 4) ayrim tabiiy obyektlar, resurslar va komplekslarni muhofaza qilish, ko'paytirish va tiklash bo'yicha ishlarning natijalari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan aytish; 5) tabiat muhofazasi bo'yicha o'tkazilayotgan chora-tadbirlar natijalarini aniqlash; 6) tuproq unumdorligini saqlash, almashlab ekish va tuproqni o'g'itlash me'yorlariga rioya etish zarurligini izohlash; 7) mahalliy ekologik va tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal etish yo'llarini aniqlash; 8) tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha takliflarni shakllantirish.</p>
Kartografik EK	<p>1) ekologik va tabiatni muhofaza qilish mazmunidagi xaritalarni o'qiy olish; 2) ayrim hududlarning sxematik ekologik va tabiatni muhofaza qilish xaritalari hamda planlarini tuzish; 3) muhiti eng ifloslangan va qulay hududlarni yozuvsiz xaritaga tushirish; 4) joyning xarita-chizmasida yirik korxonalarining (ifloslanish manbalarining) joylashuvini topish va ko'rsatish; 5) xaritalar asosida ekologik va tabiatni muhofaza qilish obyektlarini tavsiflash; 6) yovvoyi daraxtlar va butalar o'sishi uchun maktab hududini xaritalash ishlarini amalga oshirish.</p>
TMQK	<p>1) o'tsimon o'simliklar, butalar va daraxtlar ekishni amalga oshirish; 2) qushlar uchun oxur (sun'iy uyalar) tayyorlash; 3) uyda va maktabda elektr va issiqlik energiyasini tejash va undan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlarni bajarish; 4) uyda va maktabda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlarni bajarish; 5) uyda va maktabda chiqindilarni turlari bo'yicha saralash orqali alohida yig'ishni amalga oshirish; 6) chiqindi qog'ozlar to'plashni va organik chiqindilarni kompost qilishni bajarish; 7) xavfli chiqindilarni turlari bo'yicha ajratish; 8) mahalliy aholi o'rtasida chiqindilarni alohida to'plash tamoyillari va qoidalari targ'ib qilish; 9) tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ommaviy tadbirlarda ishtirok etish va ekologik tashabbuslarni ilgari surish.</p>

Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga ko‘ra (P.Galperin, E.Kabanova-Meller, N.Talizina, A.Podolskiy) ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quv faoliyati ketma-ketligiga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval

Ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlari va o‘quv faoliyati izchilligining o‘zaro bog‘liqligi

T.r.	Bosqichlar	Tavsifi	O‘quv faoliyati izchilligi
1	Usulni (harakat tarzini) kiritish	O‘qituvchi o‘quvchilarga shakllantiriladigan ko‘nikmaning muhimligini ko‘rsatadi va amaliy ahamiyatini tushuntiradi.	Harakatning motivatsion asosini yaratish
2	Usulni birlamchi o‘zlashtirish (ko‘nikma tarkibiga kiritilgan harakat bilan tanishish)	O‘qituvchi o‘quvchilarni ko‘nikma tarkibi, harakatni (amallarni) bajarish ketma-ketligi, shuningdek ko‘nikma namunasi bilan tanishtiradi.	Harakatning mo‘ljalli asosini yaratish
3	O‘quv mashqlari jarayonida ko‘nikmani mustahkamlash	O‘quvchilar mashqlarni bajaradilar (aqliy yoki amaliy harakatni takroran bajarish): ko‘nikmadan malakaga o‘tish	Harakatning bajaruvchi asosini yaratish
4	Usulni ko‘nikma darajasida mustaqil qo‘llash (ko‘nikmani yangi o‘quv materialiga “ko‘chirish”)	O‘quvchilar ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolarini modellashtirish, prognozlash va hal qilish bo‘yicha ijodiy topshiriqlarni bajaradilar	Harakatning ijodiy asosini yaratish

Ta’kidlash joizki, usul – bu o‘quvchining muayyan masalani hal qilishda yoki topshiriqni bajarishda qo‘llaydigan harakat tarzi. Usul (harakat tarzi) - maqsadga erishish uchun harakat predmetining o‘zgarishini ta’minlaydigan amallar tizimi. Masalan, kuzatish ko‘nikmasi quyidagi harakatlardan iborat: kuzatish maqsadini anglash; obyektни qarab chiqish; obyekt belgilarini tanlash; belgilarni qarab chiqish; ish natijasi maqsadga muvofiqligini tekshirish; obyekt mohiyati haqidagi xulosani shakllantirish.

Mazkur bobning “Maktab tabiiy geografiya ta’limida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi modeli” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida bu model tajribaviy ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini o‘zida aks ettiruvchi metodik tizim sifatida qarab chiqildi. Modelda bu tizimning maqsadli, motivatsiyali, mazmunli, jarayonli (texnologik) va natijaviy tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatildi (2-rasm).

Maktab o‘quvchilarida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining **maqsadli tarkibiy qismi** yuqori darajadagi maqsadlar (“Geografiya” fanidan umumta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari; 5-7-sinflar uchun tabiiy geografiya bo‘yicha maktab dasturlari) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ekologik o‘lkashunoslik vositasida o‘quvchilarda ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ta’lim vositalari quyidagilardan iborat: tabiiy geografiya bo‘yicha darsliklar, lug‘atlar, qomuslar, mashq daftarlari; geoekologiya (atrof-muhit) bo‘yicha qo‘shimcha va ilmiy-ommabop adabiyotlar; ko‘rsatmali qurollar (o‘quv kartinalari va rasmlar, tarqatma materiallar, kesa chizmalar (yotiq, tik), blok-chizmalar, tabiiy obyektlar (gerbariyalar, kolleksiyalar, o‘simliklar, tuproqlar), hajmli ko‘rsatmali qurollar (globus, modellar, maketlar, mulyajlar), grafik ko‘rsatmali qurollar

(jadvallar, grafiklar, chizmalar, diagrammalar, tavqimlar, profillar), asboblari, qo'lbola ko'rsatmali qurollar); tabiiy va geoeologik xaritalar (o'quv atlaslari, devoriy, relyef, yozuvsiz va topografik xaritalar, joy planlari, xarita-chizmalar); ta'limning texnik vositalari (interfaol doskalar, kodoskoplar, videomagnitofonlar, televizion tizimlar, shaxsiy kompyuterlar va kompyuter sinflari) va boshqalar.



2-rasm. Maktab tabiiy geografiya kurslarida ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish modeli

Tajriba-sinov tadqiqotini o'tkazish ishlab chiqilgan metodikaning **natijaviy tarkibiy qismini** aniqlashni nazarda tutadi. Ko'nikmalarni shakllantirish mezonlari uning tarkibiy elementlari sifatida qabul qilindi. Ushbu mezonlar asosida o'quvchilarning ko'nikmalari shakllanganini tashxis qilish maktab tabiiy geografiya kurslarida aniqlangan ekologik-tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon berdi. Biz bunda A.V.Usovaning metodikasini asos qilib oldik.

